

Yo'lovchilar va kutib oluvchilar diqqatiga

2022 12 Mart

«Uzbekistan Airways» AJ xabar berishicha, Istanbul xalqaro aeroportida noqulay ob-havo (kuchli qor, ko'rishning yetarli darajada emasligi va uchish hamda qo'nishga belgilangan cheklovlar) sharoiti tufayli, faqat 2022-yil 12-mart kungi HY273/HY274 Toshkent – Istanbul – Toshkent reysi bekor qilinadi. Bekor qilingan reys yo'lovchilari 13-mart kuni qo'shimcha reys bilan manzillariga yetkaziladilar.

“Uzbekistan Airways” AJ yo'lovchilarni jadvaldagi har qanday o'zgarishlar haqida qo'shimcha ravishda xabardor qiladi.

Aviakompaniya faoliyatiga doir yangiliklarni rasmiy kanallarimizda kuzatishda davom eting.

To'g'ri tushunishingizga umid qilamiz